



DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIDA PREZIDENTLIK INSTITUTINING O'RNI VA AHAMIYATI

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat hokimiyati tizimida Prezidentlik institutining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari, uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bilan o'zaro aloqalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi Prezidentlik instituti xorijiy tajribalar bilan qiyoslab o'rganilgan va uni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Prezidentlik instituti, Konstitutsiya, davlat hokimiyati, vakolatlari, demokratiya, boshqaruv.

Annotation: This article examines the role and significance of the Presidency within the system of state power. The constitutional powers of the President, as well as his relations with the legislative, executive, and judicial branches, analyzes. The institution of the Presidency in the Republic of Uzbekistan compared with foreign experiences, and scientific conclusions provided on further improvement of this institution.

Keywords: Presidency, Constitution, state power, authority, democracy, governance.

Аннотация: В данной статье рассматриваются место и значение института президентства в системе государственной власти. Анализируются конституционные полномочия Президента, его взаимоотношения с законодательной, исполнительной и судебной ветвями власти. Кроме того, институт президентства в Республике Узбекистан



сопоставляется с зарубежным опытом и выдвигаются научные выводы по его дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: институт президентства, Конституция, государственная власть, полномочия, демократия, управление.

Kirish. Har qanday demokratik davlatda hokimiyat tizimining barqaror ishlashi, uning samaradorligi va xalq manfaatlariga xizmat qilishi, avvalo, davlat boshlig'i instituti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentlik instituti zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Prezident davlat hokimiyatining yuqori pog'onasida turib, mamlakat taraqqiyoti, siyosiy barqarorlik, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda beqiyos rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik instituti mustaqillik yillarida shakllandi va u Konstitutsiyada mustahkamlangan bo'lib, davlat hokimiyati tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Prezident nafaqat davlat boshlig'i, balki ichki va tashqi siyosatning bosh yo'nalishlarini belgilovchi, xalqaro maydonda mamlakat manfaatlarini ifoda etuvchi shaxsdir. Shu boisdan ham Prezidentlik instituti nafaqat huquqiy jihatdan, balki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham davlat barqarorligining kafolati sifatida qaraladi.

Mazkur maqolada Prezidentlik institutining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Xususan, Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari, uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bilan o'zaro aloqalari, shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat faoliyati jarayonida prezidentlik instituti muhim ahamiyat kasb etib, boshqaruvining respublika shaklidagi davlatlarda davlat hokimiyati tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

1990-yil 24-martda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni, fuqarolarning





huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida MDH davlatlari ichida esa birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasida Prezidenti lavozimi ta'sis etildi.¹

Prezidentlik institutining joriy etilishi o'zbek davlatchiligi tarixida rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston mustaqillik bo'sag'asida turgan bir paytda mazkur institut yuqori darajada ahamiyatga ega edi va davlat faoliyatini amalga oshirishda tayanch vazifasini bajardi. Ilk bor 1990-yil 24-martda Islom Karimov mazkur lavozimni egalladi va shundan keyin mazkur lavozim siyosiy tizimning o'zagini tashkil etib, davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o'rinni egalladi.

Dastlabki bosqichda prezidentlik instituti davlat hokimiyati tizimida markaziy o'rinni egallab, siyosiy tizimning o'zagiga aylandi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etish hamda davlatning bosh islohotchi bo'lishi zarurati o'tish davrida Prezident zimmasiga katta mas'uliyat va strategik vazifalarni hal etish zaruratini yuklash barobarida uning keng vakolatlarga ega bo'lishini taqozo etdi. Prezident davlat va ayni vaqtda ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatida islohotlarning tashabbuskori, yangilanish va o'zgarishlar jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.²

O'zbekiston Respublikasi yangilangan tahrirdagi Konstitutsiyasining XIX bobi prezidentlik institutiga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'i ekanligi va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.³ Konstitutsiyaning tegishli normalarida Prezidentning mamlakat ichki va tashqi siyosatini belgilashdagi vakolatlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990. - № 10-11, 197-modda.

² https://constitution.uz/oz/pages/Prezidentlik_instituti

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)



qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi roli hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlashdagi vakolatlari mustahkamlangan. Bu esa Prezidentlik institutini nafaqat oliy davlat boshqaruv organi sifatida, balki huquqiy davlat barqarorligini ta'minlovchi fundamental institut darajasiga ko'taradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentlik institutining Konstitutsiyada mustahkamlanishi demokratik huquqiy davlat qurilishining asosiy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi.⁴

O'zbekiston Respublikasida Prezident institutining muhim jihatlaridan biri uning normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish vakolatidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.⁵ Mazkur hujjatlar davlat boshqaruvi jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, mamlakat siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida bevosita huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Prezident farmonlari odatda umumiy normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda asosiy hujjat hisoblanadi. Qarorlar esa ma'lum bir masalani huquqiy tartibga solishga qaratilgan bo'lib, ko'proq ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtirishga

⁴ Mualliflar jamoasi, "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" Darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019, -62-63-betlar

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)



xizmat qiladi. Farmoyishlar esa ko'proq tashkiliy-ma'muriy tisdagi hujjatlar bo'lib, konkret vazifalarni bajarishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, prezidentlik instituti zamonaviy huquqiy davlat qurilishida markaziy o'rin tutuvchi institutlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu institutning konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi davlat hokimiyati tizimining yaxlitligi va barqarorligini ta'minlash, shuningdek, xalq manfaatlarini ifoda etuvchi samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Prezident mamlakatda davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, ichki va tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda davlat barqarorligi va huquqiy tizim izchilligini ta'minlaydi. Shu jihatdan uning farmon, qaror va farmoyishlari huquqiy tizimda muhim manba bo'lib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990. № 10-11, 197-modda.
2. https://constitution.uz/oz/pages/Prezidentlik_instituti
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
4. Mualliflar jamoasi, "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" Darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019, -62-63-betlar
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)